

Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 26 308 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar birlashtirildi

	2025- yil 1- iyul holatiga, birlik	2026-yil 1- iyul holatiga, birlik
Xorazm viloyati	22 709	26 308
Urganch sh.	4 355	5 046
Xiva sh.	1 646	1 877
Bog'ot	1 529	1 697
Gurlan	1 380	1 673
Qo'shko'pir	1 665	1 957
Urganch	2 599	2 986
Hazorasp	1 458	1 691
Tuproqqal'a	629	709
Xonqa	1 893	2 098
Xiva	1 510	1 698
Shovot	1 486	1 669
Yangiariq	1 590	1 951
Yangibozor	969	1 256

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




Iqtisodiy faoliyat turlari

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2026- yilning yanvar-iyunida 3 907 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 992 ta, savdo sohasida 977 ta, sanoatda 672 ta hamda boshqa xizmatlarda 508 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2025- yil yanvar-iyun oylarida, birlik	2026-yil yanvar-iyun oylarida, birlik
Xorazm viloyati	3 648	3 907
Urganch sh.	507	586
Xiva sh.	209	263
Bog'ot	324	345
Gurlan	254	313
Qo'shko'pir	289	301
Urganch	346	393
Hazorasp	278	317
Tuproqqal'a	106	99
Xonqa	219	227
Xiva	241	235
Shovot	332	338
Yangiariq	350	299
Yangibozor	193	191

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2026- yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 69,2 % ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 1,3 % ga pasaygan.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 800,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 26,7 % ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 6 792,6 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining

79,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan 107,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'shko'pir (98,2 %), Shovot (96,1 %) va Yangibozor (95,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 6 905,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 49,1 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 91,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'shko'pir (98,2 %), Shovot (96,1 %), Yangibozor (95,5 %) va Yangiariq (95,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 12 951,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 98,3 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 106,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Hazorasp Xiva sh. (99,5 %), Xiva sh. (99,5 %), Shovot (99,2 %) va Gurlan (99,0 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 9 329,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 95,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 120,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Yangiariq (99,6,%), Gurlan (99,6 %), Qo'shko'pir (99,5 %) va Xiva (97,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 16 336,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 70,4 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan 110,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Gurlan (83,4 %), Tuproqqal'a (81,2 %), Yangibozor (81,0 %), Qo'shko'pir (80,3 %) va Yangiariq (79,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 167,4 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 63,1 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Hazorasp tumanida – 100,0 %, Yangibozor tumanida – 100,0 %, Yangiariq tumanida – 99,8 %, Qo'shko'pir tumanida – 97,7 %, Bog'ot tumanida – 96,7 % va Urganch tumanida – 77,7 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 157,2 mln AQSH dollarini yoki jami importning 62,7 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Hazorasp tumanida – 100,0 %, Yangibozor tumanida – 100,0 %, Urganch tumanida – 95,0 %, Yangiariq tumanida – 94,1 %, Xiva tumanida – 93,1 %, Gurlan tumanida – 90,5 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,3 % ni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,7 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 82,2 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,5 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 94,4 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,6 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyunida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,7 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,3 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar- iyunida 28,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar- iyunida 18,3 % ga yetgan yoki 2022- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 10,3 birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2022- yilning yanvar- iyunida 66,9 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar- iyunida 78,9 % ni tashkil qildi. O'z navbatida iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2022- yilning yanvar- iyunida 4,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026- yilning yanvar- iyuniga kelib bu ko'rsatkich 2,8 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar- iyunida 33,1 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar- iyunida 46,4 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2022- yilning yanvar-iyunida 63,5 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar- iyunida 52,3 % tashkil etgan. O'z navbatida iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2022- yilning yanvar- iyunida 3,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026- yilning yanvar-iyuniga kelib 1,3 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash

Kichik korxona va mikrofirmalarning 2026- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini a'lo deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoat sohasida – 22,8 % ni, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 22,1 % ni va savdoda – 19,2 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 100,0 % ni, xizmatda – 70,3 % ni va qurilishda – 70,5 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini o'rtacha deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi axborot va aloqada – 50,0 % ni, tashish va saqlashda – 29,6 % ni va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 21,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 4,8 % ni, qurilish sohasida – 3,3 % ni va sanoatda – 2,9 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.



Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:	Ijrochi:	Manzil:
Tadbirkorlik subyektlari kuzatuv statistikasi bo'limi	T. Xodjaniyazov (62) 227-77-88 (90-30)	220100, Urganch sh., Al- Xorazmiy ko'chasi, 93-uy